

SHE'RIYATDA LIRIK "MEN"NING POETIK UYG'UNLIGI

Gulchiroy Turdaliyeva Anvarjon qizi*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada lirikada muallif obrazining yoritilishi, ijodkorning "men"i qay yo'sinda namoyon bo'lishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: lirik qahramon, syujet, voqelik, matla, maqta, she'riy san'at, "men" tushunchasi.

Mashhur psixoanalitik Zigmund Freyd insonning tana a'zolaridagi xastalikni she'r orqali ham davolash mumkin ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. She'rning ruhiy parvozi ham inson irodasining qanchalik matonatli va chidamliligi bilan ham belgilanadi. Ruhiy chidamlilik har qanday og'iriqlarni, iztiroblarni yengib o'tishga qodir. Tafakkurning bepayon parvozlari fazoviy bo'shliqlarni zabt etadi, unga maqsad nazari bilan erishiladi.

Lirikaning bosh obraz lirik qahramon hisoblanadi. Lirikada lirik qahramonning ichki dunyosi birinchi o'rinda turadi. Barcha ifoda shoirning „men“i orqali o'tadi. Lirikada eposdan farqli o'laroq, muayyan epik syujet bo'lmaydi. Dramatik turdan ajralib turadigan jihati esa, lirikadada sub'yektivlik kuchli. Ayni paytda lirika emotsionalligi, o'quvchi qalbini hayajonga solishi bilan farqlanadi. Lirik asarda sub'yekt va ob'yekt bir shaxsda mujassam topadi, undagi markaziy „personaj“ ijodkorning o'zi, yanada aniqrog'i, uning ichki ma'naviy-ruhiy olami sanaladi. Lirika ijtimoiy, madaniy, maishiy, ishqiy mavzularni qamrab olishi va juda katta ijtimoiy, estetik mohiyat kasb etishi ham mumkin. Biroq bunda ham, baribir, lirik asar o'zagida individual shaxs kechinmalari, his-tuyg'ulari yetakchilik qiladi. Poetik „men“ va biografik „men“ lirikaning odatiy, o'zaro ajralmas unsuri sanaladi. Ammo har qanday biografik ma'lumot poetik matn ichida o'z mazmun-mohiyatini o'zgartirib, ijtimoiy-madaniy yoki ma'naviy-estetik mohiyat kasb etishi mumkin.

Badiiy asarda "men"ning namoyon bo'lish shakllari Adabiyotshunoslikda "men" tushunchasi ilk bora N. G. Chernishevskiyning Rostopchina she'rlari haqida yozgan taqrizida qo'llanilgan.[1.B35] Taqriz muallifi badiiy asardagi "men"ning namoyon bo'lishini shunday tasniflagan edi: "1) lirik she'rning "men"i har doim ham bu she'rni yozgan muallif "men"ining o'zi bo'lavermaydi; 2) lirik she'rdagi "men"da mavjud bo'lgan qiliqlar, holatlar va hislarni shoirning o'ziga nisbat berishda nihoyatda ehtiyot bo'lish kerak va bu lirik "men"ning his-tuyg'ulari va harakatlarini ijobiy tarixiyadabiy omillar orqali tushunishdan o'zga narsa emas" [4.B455-457]. Y. N. Tinyanov lirik "men"ni "lirik qahramon" atamasi bilan o'zgartirdi va ilk marta adabiyotshunoslikka olib kirdi [4.B118]. "Lirikada "men" (goho "biz") qahramon

bo‘lib qolar ekan, u hamma shoir ijodida ham “men” tarzida qoladi, ya’ni tashqi shakl jihatidan emas mazmunan o‘zgaradi. Binobarin, “men” har bir davr lirikasida, har bir milliy lirikada o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Lirik qahramon haqida gapirganda, uning tarkibida “oshiq obrazi”, “rind mutafakkir obrazi” to‘g‘risida so‘zlash holatlari ham uchraydi [3.B118]. Bizningcha, asosiy qahramon bitta, u monologik nutq egasi “men”dir, bundan tashqari gap o‘zbek lirikasi haqida borar ekan, unda ba’zi lirik personajlar bo‘lishi mumkin, masalan, yor, raqib, shayx, rafiq, soqiy, zohid, mashshota, mug‘anniy va boshqalar” [2.B63]. Lirik “men” va tarixiy nasriy asarlardagi muallif “men”i o‘rtasida ma’lum farq bor. Lirik “men”da shoir tarjimai holi voqealari bilan emas, balki ularning estetik in’ikosi hamda muallif “men”ining badiiy tarzdagi o‘zgacha ifodasi bilan ajralib turadi. Lirikada “lirik qahramon” “men”i yetakchilik qilsa, tarixiy nasriy asarlarda yakuniga qadar muallif “men”i yetakchilik qiladi. XV asrda muallifning “men”i Navoiy ijodida ko‘proq “Mahbub ul-qulub”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” va “Munshaot”da ifodalangan bo‘lsa, XVI asrga kelib Bobur “Vaqoyi”sida o‘z takomiliga yetdi. Bu an’anani keyinchalik

O‘zbek adabiyotshunosligida ilk bor H.Qudratullayev tomonidan tarixiy sarguzasht asarlarda badiiy tasvir, muallifning “men”i va davr adabiy estetikasining “men”ga qo‘yg‘o‘ygan talabi tajriba tariqasida o‘rganildi [4.B355].

Mazkur tadqiqotdan Zahiriddin Muhammad Boburning “Yaxshilig” radifli g‘azali tahlili orqali mushohada etamiz.

Kim ko‘rubtur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?

Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘!

Shu paytda Bobur hasratidan chang chiqib, alam-iztirob iskanjasida: “Ey ko‘ngil, bu jahon ahlidan kim yaxshilik ko‘rib ediki, sen ko‘rar eding? Tabiatida yaxshiligi bo‘lmagan kimsadan sira yaxshilik kutma!” deb hayqiradi.

Albatta, keyin bu baytni davom ettirib, yaxlit g‘azalga aylantiradi. Unga shoh-shoirning sarson-sargardonlik – qazoqiliklarda yurgan shu davrdagi ko‘rgan-kechirganlari asos qilib olingan. Tabiiyki, inson shaxsiy baxtsizliklari uchun zamonni aybdor qilishi, uning ustidan qat’iy hukm chiqarishi to‘g‘ri emas. Hadisi sharifda ham “Zamonni ayblamanglarki, uning sohibi Olloh taoloning o‘zi” [5.B129], deyiladi. Buni yaxshi anglagan Bobur umumlashtiruvchi xulosadan qochadi. “Ey do‘st, agarda men zamonni rad etsam, ayb qilma, nima qilayki, bu zamondan hech bir yaxshilik ko‘rmasdim!” deb aslida aybni o‘z bo‘yniga oladi:

Gar zamonni nafy qilsam, ayb qilma, ey rafiq,

Ko‘rmasdim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig‘! [3.B 78–79]

Asosiy mavzusi ishq-u muhabbat hisoblangan mumtoz she’riyatda har qanday shikoyat motivlari ma’shuqa bilan bog‘lab ifodalanganini nazarda tutsak, baytning mazmun-mohiyati yanada oydinlashadi:

*Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko'ngluma,
Kelmadi jonimg'a hech oromi jondin yaxshilig'.*

Boshqa bir g'azalida ham o'z ko'ngliga murojaat qilib, har qancha g'ariblik iskanjasida qolsang-da, eldan vafo umidvor bo'lma, chunki diyordan ham, yordan ham sira vafo ko'rganing yo'q-ku, deydi:

*G'urbat ichra, ey ko'ngul, eldin vafo istarni qo'y,
Chun vafosin ko'rmading hargiz diyord-u yorning.*

“Ey ko'ngil, – deydi zor Bobur davom etib, – yaxshi kishilardan shunchalik ko'p yomonlik ko'rdingki, endi har yomondan yaxshilik ko'z tutishdan ma'ni bormi?”

*Ey ko'ngul, chun yaxshidin ko'rdung yomonliq asru ko'p,
Emdi ko'z tutmaq ne, ya'ni har yamondin yaxshilig'?!*

Lekin Bobur bag'rikeng, mehdariyo inson bo'lgan: o'ziga yomonlik qilganlarning ham gunohidan o'tib, qo'lidan kelgancha ularga yaxshilik ko'rsatgan.

*Ey ko'ngul, chun yaxshidin ko'rdung yomonliq asru ko'p,
Emdi ko'z tutmaq ne, ya'ni har yamondin yaxshilig'?!*

Barcha elga yaxshilik qilki, shundan yaxshi narsa yo'q, toki dunyoda falon kishidan yaxshilik qoldi, deb eslab yursin, degan aqida bilan yashagan:

*Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q –
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'!*

Futuvvat ahli orasida yaxshilikka yaxshilik – hammaning ishi, yomonlikka yaxshilik – mard kishining ishi, degan hikmat mashhur. Haqiqiy javonmardlikni amalda namoyish qilgan mard va tanti, saxovat va shijoat sohibi bo'lgan Bobur ham javonmard hukmdorning hayotiy timsoli edi. Binobarin, taqdiri har qancha og'ir kechgani, zamon va odamlardan ko'p jabr-u jafo ko'rganiga qaramay, Boburning yomonlikka yomonlik bilan javob berishi mumkin emas edi va uning butun hayoti buning yorqin isbotidir.

Hikmat darajasidagi shunday nekbini misralardan so'ng g'azalning yana badbini kayfiyatda yakunlashi uning Bobur hayotining sarson-sargardonlikda kechgan og'ir davrida tugatilganiga ishora qiladi:

*Yaxshilig' ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?!*

G'azal tushkun ruhda nihoyasiga yetganiga qaramay, bu baytda, bir tomondan, yaxshi odam yomonlar qurshovida qolsa, unga kun yo'q, degan fikr ilgari surilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, “Bobur kibi jahon ahlidin yaxshilik istama”, deyish bilan bu adolatsizlikning faqat uning boshiga tushgani, binobarin, dunyo faqat

yomonlikdan iborat emasligi, aksincha, u yaxshilik tufayli poydorligiga maqtadan oldingi bayt dalolat qiladi.

Zamon va odamlardan shikoyat ohanglari nafaqat Bobur, balki barcha shoirlar ijodiga xos. Mashhur fransuz mutafakkiri Lyuk Vovenarg: “Hali yer yuzida o‘zi yashagan zamonadan rozi yozuvchi bo‘lgan emas”, degan edi. Jumladan, Alisher Navoiyning ham “Mehr ko‘p ko‘rguzdum, ammo mehribone topmadim”, “Kimga qildim bir vafokim, ming jafosin ko‘rmadim” [3.B 43] kabi ko‘plab g‘azallarida bu holni ko‘ramiz. Ma‘lum bo‘ladiki, shikoyat ruhidagi, badbinlik kayfiyatidagi bunday she‘rlar tushkunlikka tushishimizga asos bermaydi. Har qanday kishining hayoti ham goh quvonchli, goh tashvishli, xalq ta‘biri bilan aytganda, goh quyoshli, goh bulutli kunlardan iborat. Binobarin, goh nekbin, goh badbin fikr-xayollar odam bolasiga hamisha xos bo‘lib kelgan. Bobur Mirzoning “yaxshilig” radifli g‘azali ham fikrimizning yorqin isbotidir.

G‘azal shunchaki shikoyatdan iborat bo‘lib qolmay, shoirning badiiy jihatdan ham barkamol she‘rlari sirasiga kiradi. U turkiy she‘riyatda keng qo‘llangani jihatidan aruzning turkiy vaznlari deb ataladigan hazaj, ramal, rajaz va mutaqorib to‘rtligidan ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida yaratilgan. Unda “jahon”, “on”, “zamon”, “jon”, “yamon”, “falon” so‘zlari qofiya, “-din yaxshilig” birikmasi (“-din” chiqish kelishigi qo‘shimchasi va “yaxshilig” so‘zi) radif bo‘lib kelgan. Radif she‘rda qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so‘z, so‘z birikmasi yoki gap. Radif she‘rni boshidan oxirigacha yagona mavzu, bir g‘oya, mushtarak ohang atrofida birlashtiradi, o‘quvchi e‘tiborini bir nuqtaga jamlaydi. Chunki shoir she‘rda qaysi fikrga urg‘u bermoqchi, nimaga o‘quvchi e‘tiborini qaratmoqchi bo‘lsa, o‘sha so‘zni radifga chiqaradi. Mazkur g‘azalda “yaxshilig” so‘zi ayni vazifani bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Zahiriddin Muhammad Bobur. Muhtalo bo‘ldum sanga. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
2. Atoulloh Husayniy. Badoyi‘u-s-sanoyi’ (A.Rustamov tarjiması). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981.
3. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog‘a // O‘zbek tili va adabiyoti, 2002-yil, 6-son.
4. www.ziyo.uz
5. www.xurshiddavron.uz